



## HUDUDLARDA XIZMATLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNINIG TASHKILIIY-IQTISODIY MEKANIZMI

**Bozorov Dadaxon Berdimurodovich**

*Sh.Rashidov nomidagi SamDUning inson resurslari*

*va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti*

*ORCID: 0009-0003-5520-190X*

*[bozorov2040@mail.ru](mailto:bozorov2040@mail.ru)*

**Annotatsiya.** Maqolada hududlarda xizmatlar samaradorligini oshirishninig tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari o'rganilgan. Asosiy e'tibor iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish sharoitida yangi texnologiyalar asosida xizmatlar sohasini modernizatsiyalashtirish orqali xizmatlar sifati va samaradorligini oshirish holatlari o'rganib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** maishiy xizmat, samaradorlik, sifat, resurslar, ehtiyojlar, iste'mol xizmati, nomoddiy soha, ehtiyojni qondirish, innovatsion rivojlanish, mehanizatsiyalashtirish.

## ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УСЛУГ В РЕГИОНАХ

**Бозоров Дадахан Бердымуродович**

*СамДУ им. Ш.Рашидова института управление*

*человеческим ресурсами и развитие махалле*

**Аннотация.** В статье рассматриваются организационно-экономические механизмы повышения эффективности услуг в регионах. Основное внимание уделяется случаям повышения качества и эффективности услуг за счет модернизации сферы услуг на основе новых технологий в условиях инновационного развития экономики.

**Ключевые слова:** бытовая услуга, эффективность, качество, ресурсы, потребности, потребительское обслуживание, нематериальный сектор, удовлетворение потребностей, инновационное развитие, механизация.

## ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISM OF INCREASING THE EFFICIENCY OF SERVICES IN THE REGIONS

**Bozorov Dadakhan Berdimurodovich**

*SamDU named after Sh.Rashidov*

*Institute of Management human*

*resources and mahalla development*

**Abstract.** The article examines the organizational and economic mechanisms of improving the efficiency of services in the regions. The main focus is on cases of improving the quality and efficiency of services by modernizing the service sector based on new technologies in the context of innovative economic development.

**Keywords:** household service, efficiency, quality, resources, needs, consumer service, intangible sector, satisfaction of needs, innovative development, mechanization.

## Kirish.

Yangi O'zbekistonni barpo etish sharoitida xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarini barqaror rivojlantirish, ularning raqobatbardoshligini ta'minlashning muhim omili hisoblangan xizmat ko'rsatish jarayonlari samaradorligini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida «...xizmat ko'rsatish va servis sohaslarini rivojlantirish orqali keyingi 5 yilda xizmat ko'rsatish hajmini 3 baravarga oshirish hamda ushbu yo'nalishda jami 3,5 million yangi ish o'rinlarini yaratish» (Farmon, 2022) kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishlardan biri milliy iqtisodiyotning tarkibiy qismi bo'lgan hisoblangan servis tizimini rivojlantirish, aholining hayot sifatini yanada yaxshilashdan iboratdir. Uning turli xildagi talablarini qondirish muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ushbu sohaning rivoji muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish va xizmatlar sohasini modernizatsiyalash jarayonida maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarini doimiy ravishda transformatsiyalanib boruvchi iqtisodiyot sharoitida barqaror rivojlanish ularning xo'jalik faoliyatida maishiy xizmatlar sifati va samaradorligini oshirishni zarurat etadi.

## Adabiyotlar sharhi.

«Maishiy xizmat» tushunchasini o'rganishda ko'plab ta'riflar keltirilgan. Bu boradigi bahs-munozaralar bugungi kunda ham maishiy xizmatlar sohasining barcha jabhalariga taalluqli bo'lib, ushbu tushuncha to'g'risida fan vakillari: sotsiologlar, psixologlar va iqtisodchi olimlar izlanishlar olib borganlar.

Roze va Rossinskiy maishiy xizmatlarga «uy mehnatini u yoki bu darajada almashtiradigan yoki qisqartirishga imkon beradigan xizmatlar»ni kiritishadi. Ushbu mualliflik talqinida asosiy diqqat turmush sharoitidagi xizmatlarni almashtiradigan yoki ularni ma'lum darajada soddalashtirishga qaratilgan holda iste'mol xususiyatini qayta tiklash, shuningdek iste'mol uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratib berishga qaratilgan xizmatlar e'tibordan chetda qolib ketgan (Биндиченко, 2000)

Yuximenko (1974) maishiy xizmatlarni insonning maishiy turmush bilan bog'liq ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan turli ishlab chiqarish va noishlab chiqarish shaklidagi mehnati yoki harakatining iste'mol qiymatini o'zida aks ettiradi. Bu yerda maishiy xizmat mehnatni tashkil etish shakli va iste'mol nuqtai nazaridan olib qaralgan holda ularni amalga oshirishda individual xarakteri ochib berilmagan.

Garaninning (1980) fikricha, «Maishiy xizmatlar, ma'lumki pullik xizmatlarning tarixiy shakllangan muayyan majmui va turlari hisoblanib, korxonalar tomonidan aholining yakka tartibdagi buyurtmalarini bajarishga hamda ularning shaxsiy daromadlari asosida to'lov qilinadigan xizmatlardir». Ammo ushbu tarifga ko'ra maishiy xizmatlar nafaqat korxonalar tomonidan, balki jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibda ham ko'rsatilishi, ularning barchasi ham aholining shaxsiy daromadi hisobidan qoplab berilishi mumkinligi muallif e'tiboridan chetda qolib ketganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

«Maishiy xizmat» kategoriyasining mohiyatini yoritishda Dmitrevning (1996) fikricha: «maishiy xizmat – bu samarali harakat sifatida mehnat unumdorligining natijai bo'lib, yo moddiy-ashyoviy predmetlarda gavdalanadigan, yo sezilarli natijalarni ifodalaydigan aniq ko'rinishdagi faoliyat turi hisoblanadi». Lekin mazkur ta'rifda muallif maishiy xizmat moddiy shilab chiqarish sohasiga tegishli tarmoq sifatida bu sohada mehnat unumdorligi aniqlanadi deb ifodalaydi. Shu nuqtai nazarni qo'llab-quvvatlovchi olimlardan Yadgarovning (1990) fikricha: «Maishiy xizmat aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohasida o'ziga xos moddiy ishlab chiqarish sifatida aniqlanadi» degan fikrni bildirdi.

Kotler (2005) «xizmat - bir tomon ikkinchi tomonga taklif etishi mumkin bo'lgan har

qanday faoliyat yoki ne'mat biron narsaga egalik qilish imkonini bermaydigan foydali harakat» deb qaraydi.

Fatxutdinov (2000) esa, «xizmat – bu bajaruvchi va iste'molchining o'zaro kelishilgan faoliyati bo'lib, bajaruvchining istemolchi ehtiyojlarini qondirishdagi faoliyati natijasidir», – deb ta'riflagan.

Agapova va Sereginalar (2007) - «xizmatlar nomoddiy sohaga taalluqli bo'lib, moddiy mahsulot yaratmaydigan insonning turli faoliyat yuritishidir» - deb hisoblaydilar.

Respublikamiz iqtisodchi olimlari ham xizmat ko'rsatish sohasini chuqur tadqiq etib, quyidagi ta'riflarni berishgan.

Jumladan, Pardaev (2009) xizmat ko'rsatish sohasining mohiyatini mehnat jarayoni nuqtai nazaridan, YaIM ishlab chiqarish nuqtai nazaridan, davlat nuqtai nazaridan, tovar nuqtai nazaridan, mehnat egasi nuqtai-nazaridan, mulk egasi manfaatlarini nuqtai nazaridan ochib beradi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Hududlarda xizmatlar samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish jarayonida qiyosiy solishtirish, statistik va boshqa ma'lumotlarni tahlil qilish, iqtisodiy jihatdan taqqoslash, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstratsiya, ma'lumotlarni guruhlash, tahlil va sintez usullaridan keng foydalanilgan.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Maishiy xizmat ko'rsatish faoliyati murakkab va ko'p qirrali jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayon korxonalar xodimlarini va resurslarini samarali boshqarish, xizmat ko'rsatish standartlariga rioya qilish, ko'rsatilayotgan xizmatlarning iste'molchilar talablariga mos kelishi orqali ta'minlanadi. Bu esa maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarida xizmat ko'rsatish jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishni talab qiladi.

Maishiy xizmatlar to'g'risida gapirar ekanmiz, avvalo ularning maishiy turmushdagi ahamiyatiga, xizmatning kundalik turmushga taalluqli ekanligiga alohida e'tibor qaratishimiz lozim.

Maishiy xizmatlar nafaqat ehtiyojlarni qondirish, balki aholi ehtiyojlari shakllanishini maqsadga yo'naltirilgan holda, ularning bo'sh vaqtlarini tejash uchun imkoniyat yaratadi. Respublikamizda iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarining keng ko'lamda rivojlanishi tadbirkorlik faoliyatini jadal sur'atlar bilan kengayishi, aholi daromadlarini oshishi, bandlik va yangi ish o'rinlari sonini ko'payishi hamda asosiy ishdan tashqari nostandart ish bilan bandlikni ta'minlash imkoniyatini yaratadi.

Maishiy xizmat ko'rsatish sohasining innovatsion rivojlanishi bevosita ilmiy-texnik taraqqiyot natijalariga, ya'ni xizmat ko'rsatish jarayonlarini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishga bog'liqdir. Mazkur sohada texnologik operatsiyalarni mashina va apparatlar yordamida mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish xizmat ko'rsatish samaradorligini oshiradi hamda xodimlar mehnatini intellektuallashtirish darajasini oshiradi.

Maishiy xizmat sohasida faoliyat natijasini baholash pirovard natijalarga bog'liq ravishda uning samaradorligi bilan foydalilik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlarni qo'llash ham maqsadga muvofiqdir.

Mazkur sohada xizmat ko'rsatish natijalari iqtisodiy faoliyatining samaradorligi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uni oshirish hozirgi vaqtda eng muhim iqtisodiy vazifa bo'lib qolmoqda.

Maishiy xizmat ko'rsatish sohasida samaradorlikni oshirishning mutloq ko'rsatkichlariga: jami ishlab chiqarilgan xizmatlar hajmida maishiy xizmatlar sohasining ulushi, maishiy xizmat ko'rsatish darajasida foyda me'yori va hajmi, xizmat ko'rsatish jarayonining fondlar bilan qurollanganligi, xarajatlar tejalishi, bir xodimga to'g'ri keladigan

maishiy xizmatlar hajmi, mehnatning barqarorligi kabilar kiradi. Maishiy xizmat sohasida iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari foizlarda aniqlanadi. Masalan, foydalilik darajasi har bir xodimga to'g'ri keladigan foyda summasi bilan ifodalanadi.

Ushbu ko'rsatkichlarning afzalligi shundaki, har bir maishiy xizmat xodimining va shu korxonada moliyaviy faoliyati bilan qiziquvchi sub'ektlarning xizmat ko'rsatish samarasi to'g'risida xulosa qilish uchun aniqroq ma'lumotni beradi.

Maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy faoliyat natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlarni alohida ko'rsatkichlar tizimi orqali tadqiq etish muhim hisoblanadi. Korxonaning umumlashgan ko'rsatkichi – bu xizmat ko'rsatish hajmi hisoblanadi. Bu ko'rsatkich bir xodimga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi bilan aniqlanadi, ya'ni:

I. 1. Maishiy xizmat korxonasida bir ishchi (xodim)ga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi ( $I_x$ ):

$$I_x = \frac{X_x}{I_s}, \quad (1);$$

bu yerda:  $X_h$  – hisobot davridagi haqiqiy xizmatlar hajmi (so'm);

$I_s$  – hisobot yildagi ish (xodim)lar soni.

Shuningdek, maishiy xizmat sohasida mehnat resurslaridan samarali foydalanishni ifodalovchi ko'rsatkichlarga qo'yidagilar kiradi:

2. Maishiy xizmat korxonasida bir so'mlik ish haqi jamg'armasiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi ( $X_{ix}$ ):

$$X_{ix} = \frac{X_x}{IH_j}, \quad (2);$$

bu yerda:  $IH_j$  – maishiy xizmat korxonasida hisobot yilidagi haqiqiy ish haqi jamg'armasi miqdori.

3. Maishiy xizmat ko'rsatish korxonasida bir so'mlik ish haqi jamg'armasiga to'g'ri keladigan foyda hajmi ( $F_{ih}$ ):

$$F_{ih} = \frac{F_h}{IH_j}, \quad (3);$$

bu yerda:  $F_h$  – korxonada hisobot davridagi foyda summasi.

4. Maishiy xizmat ko'rsatish xodimlarining fondlar bilan qurollanish darajasi ( $FQ$ ):

$$FQ = \frac{AF}{I_{o'ys}}, \quad (4);$$

bu yerda:  $AF$  – korxonada o'rta yillik asosiy fondlar qiymati;

$I_{o'ys}$  – hisobot yilida korxonadagi o'rta yillik ishchilar soni.

II. Maishiy xizmat sohasida mehnat resurslari bilan ishlash sifati

1. Korxonada mehnatni mexanizatsiyalash darajasi ( $M_d$ ):

$$M_d = \frac{I_m}{I_{o'ys}}, \quad (5);$$

bu yerda:  $I_m$  – hisobot yilidagi qo'l mehnati mexanizatsiyalashtirilgan ishchilar soni;

2. Korxonada ish haqi jamg'armasining xizmat ko'rsatish xarajatlaridagi ulushi ( $XX_{ih}$ ):

$$XX_{ih} = \frac{IH_j}{XK_x}, \quad (6);$$

bu yerda:  $XK_x$  – korxonada xizmat ko'rsatish xarajatlari summasi.

3. Maishiy xizmat ko'rsatish korxonasida ishchi xodimlarning o'rtacha ish haqi miqdori ( $I_{o'rtih}$ ).

$$I_{o'rtih} = \frac{IH_j}{I_{o'ys}}, \quad (7);$$

4. Korxonada muayyan vaqt ichida qilingan mehnat sarfining ishlatilishi bo'yicha ish sifati ( $M_{is}$ ):


$$M_{is} = \frac{S_h}{S_n} \times 100 - 100, \quad (8);$$

bu yerda:  $S_h$  – haqiqatdagi samaradorlik;  
 $S_n$  – samaradorlikning normativ ko'rsatkichi.

Xizmatlar sohasi aholining barcha qatlamlarini qamrab oladi va jamiyatda ro'y berayotgan deyarli barcha ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta'sir qiladi, bu esa ushbu masalaning dolzarbligi va ahamiyatini belgilaydi.

Bozor munosabatlarining rivojlanishi, shuningdek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar sharoitida xizmatlar sohasida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda.

2018 yilga nisbatan (150,9 trln. so'm) 2022 yilda (357,6 trln. so'm) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 206,7 trln. so'mga oshdi. 2018- yildan 2022 yilning yanvar-dekabriga qadar bo'lgan davrda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'ati 175,9 % ga yetdi.



1-rasm. 2018-2022- yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

Bugungi kunda xizmatlar sohasi zamonaviy milliy iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biridir. Ushbu tarmoq an'anaviy faoliyat bilan cheklanib qolmaydi, u jamiyat hayotida o'z ishtirokini doimiy ravishda kengaytirib boradi, ijtimoiy ishlab chiqarishga integratsiyalashgan, shuningdek, iqtisodiyotning deyarli barcha sohalari bilan o'ziga xos aloqalar orqali bog'langan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmi o'sishining asosiy omili moliyaviy xizmatlarning 29,3 % ga o'sishi, transport xizmatlari – 12,4 % ga, savdo xizmatlari – 9,0 % ga, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – 25,5 % ga, ta'lim xizmatlari – 15,3 % ga, boshqa xizmatlar – 17,0 % ga, yashash va ovqatlanish xizmatlari – 14,7 % ga shuningdek, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar – 11,1 % ni tashkil etdi.

2022 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan

bozor xizmatlari tarkibida savdo xizmatlari 24,8 %, transport xizmatlari – 22,7 %, moliyaviy xizmatlar – 22,5 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – 6,4 %, ta’lim sohasidagi xizmatlar – 4,3 % ni egallaydi.


1-jadval

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari

Xizmat turlarining nomi	Xizmatlar hajmi, mlrd. so'mda		Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
	2021 y.	2022 y.		
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>284 388,1</b>	<b>357 554,5</b>	<b>100,0</b>	<b>115,9</b>
<i>shu jumladan asosiy turlari bo'yicha:</i>				
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	17 755,1	22 917,6	6,4	125,5
moliyaviy xizmatlar	59 733,3	80 431,0	22,5	129,3
transport xizmatlari	67 202,9	81 006,6	22,7	112,4
<i>shu jumladan:</i> avtotransport xizmatlari	36 253,3	41 318,3	11,6	106,5
yashash va ovqatlanish xizmatlari	8 375,4	11 322,8	3,2	114,7
savdo xizmatlari	72 483,2	88 847,9	24,8	109,0
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	8 081,1	9 674,3	2,7	111,1
ta'lim sohasidagi xizmatlar	12 102,6	15 395,7	4,3	115,3
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	5 105,9	6 384,2	1,8	111,5
ijara xizmatlari	5 351,0	6 444,3	1,8	112,2
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	4 680,5	5 842,3	1,6	109,0
shaxsiy xizmatlar	6 799,8	8 713,9	2,4	107,0
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	6 306,8	7 338,2	2,1	107,7
boshqa xizmatlar	10 410,5	13 235,7	3,7	117,0

Xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining hududiy va ijtimoiy, yangi iqtisodiy hududlarni o'zlashtirishni, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni va moddiy ne'matlarni iste'mol qilishni ta'minlaydi.

2022 yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 10 030,1 ming so'mga yetdi. 2021 yilga nisbatan o'sish sur'ati 113,5 % ni tashkil etgan.



2-rasm. Aholi jon boshiga xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (mln.so'm)

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari 2018-yilda 4,6 mln.so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022-yilda 10,0 mln.so'mni tashkil etmoqda.

Bu borada Samarqand viloyatida ham keng ko'lamli ishlar olib borish natijasida 2022-yilda bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hajmi 22 734,9 mlrd. So'mni, shu jumladan qishloq joylarida 6 883,5 mlrd. So'm yoki umumiy ko'rsatilgan xizmatlar hajmining 30,3 foizi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114,9 foiz)ni tashkil qildi.

Xizmatlar tarkibida eng katta ulush savdo (jami xizmatlarning 28,3 foizi), transport (23,5 foizi) xizmatlariga to'g'ri keldi.

Shuningdek, moliyaviy xizmatlarda (134,1 foiz), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (126,0 foiz), boshqa turdagi xizmatlarda (120,7 foiz) hamda sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarda (120,2 foiz) o'sish sur'ati yuqori bo'ldi.

## 2-jadval

## Bozor xizmatlarining ishlab chiqarishni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

	Hajmi, mlrd. so'm	2021-yilga nisbatan, % da	Yakunga nisbatan, % da	sh.j: qishloq joylarida mlrd. so'm
<b>Jami xizmatlar</b>	<b>22 734,9</b>	<b>114,9</b>	<b>100,0</b>	<b>6 883,5</b>
<i>sh. j:</i> xizmat turlari bo'yicha				
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	1 059,5	126,0	4,7	12,3
Moliya xizmatlari	3 585,6	134,1	15,8	836,9
Transport xizmatlari	5 333,6	108,2	23,5	2 589,5
<i>sh. j:</i> avtotransport xizmatlari	5 059,2	108,9	22,3	2 564,7
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	860,9	114,9	3,8	146,1
Savdo xizmatlari	6 428,5	110,9	28,3	2 134,0
Ko'chmas mulk bilan bog'liq bo'lgan Xizmatlar	567,7	113,8	2,5	177,6
Ta'lim sohasidagi xizmatlari	1 208,7	112,3	5,3	103,9
Sog'liqni saqlash xizmatlari	454,2	120,2	2,0	65,2
Ijara va prokat xizmatlari	662,5	113,0	2,9	136,1
Kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari	672,3	112,0	2,9	197,6
Shaxsiy xizmatlar	1 002,5	111,8	4,4	334,9
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi Xizmatlar	341,9	100,5	1,5	57,0
Boshqa turdagi xizmatlar	557,0	120,7	2,4	92,4

Bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi savdo xizmatlari 28,3 % - eng yuqori ulushni tashkil etadi. Savdo oddiy taqsimlash mexanizmidan iste'molchiga yo'naltirilgan bozor talablarini shakllantirish jarayonlarida faol ishtirokchiga aylandi. Hozirgi vaqtda, savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmining sezilarli qismi hisoblanadi.

Shuningdek, transport xizmatlari – 23,5 %, moliyaviy xizmatlar – 15,8 %, ta'lim sohasidagi xizmatlar – 5,3 % hamda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – 4,7 % ko'rsatkich bilan yuqori o'sish sur'atlariga erishildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida savdo xizmatlari (1 252,6 mlrd. so'mga), moliyaviy xizmatlar (972,4 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (728,9 mlrd. so'mga) hamda shaxsiy xizmatlarda (241,2 mlrd. so'mga) o'sishga erishildi.

Bu ko'rsatkichlarni hududlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak hajmi va aholi jon boshiga nisbatan 3-jadvalda aks ettirilgan.

Hududlar kesimida o'tgan yilning mos davriga nisbatan xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'ati Samarqand shahri (116,8 foiz) hamda Samarqand tumani (114,6 foiz) hissalariga to'g'ri keldi.

Aholi jon boshiga eng katta xizmatlar hajmi Samarqand, (17 115,9 ming so'm), Kattaqo'rg'on shaharlarida (5 707,9 ming so'm) va Samarqand (5 759,8 ming so'm) hamda Jomboy (5 386,1 ming so'm) tumanlarida qayd etildi.

Viloyat bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning eng yuqori ulushlari Samarqand shahri (42,8 foiz), Urgut (6,7 foiz), Samarqand (6,7 foiz), Pastdarg'om (6,1 foiz) hamda Toyloq (4,4 foiz) tumanlari hissalariga to'g'ri keldi.

Samarqand viloyatida 2022- yil davomida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 5 579,2 ming so'mni tashkil qildi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan esa 112,5 % ni tashkil etdi.

## 3-jadval

## Hududlar kesimida bozor xizmatlari ishlab chiqarishi

	mlrd. so'm	Hajmi		Aholi jon boshiga	
		2021-yilga nisbatan, % da	jamiga nisbatan ulushi, % da	ming so'm	2021-yilga nisbatan, % da
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>22 734,9</b>	<b>114,9</b>	<b>100,0</b>	<b>5 579,2</b>	<b>112,5</b>
Samarqand sh.	9 713,3	116,8	42,8	17 115,9	114,5
Kattaqo'rg'on sh.	529,7	114,6	2,3	5 707,9	112,6
tumanlar:					
Oqdaryo	787,0	113,2	3,5	4 709,5	110,7
Bulung'ur	607,7	113,0	2,7	3 110,0	110,8
Jomboy	983,5	113,2	4,3	5 386,1	110,4
Ishtixon	808,8	113,1	3,6	3 026,0	110,6
Kattaqo'rg'on	894,0	112,8	3,9	3 135,6	110,6
Qo'shrabot	452,1	113,2	2,0	3 281,0	110,9
Narpay	751,6	112,8	3,3	3 396,5	110,7
Payariq	803,3	113,2	3,5	3 047,5	110,6
Pastdarg'om	1 394,7	112,6	6,1	3 758,4	110,3
Paxtachi	504,3	113,0	2,2	3 384,2	111,5
Samarqand	1 522,3	114,6	6,7	5 759,8	112,3
Nurobod	454,3	113,2	2,0	2 878,9	110,9
Urgut	1 530,8	114,5	6,7	2 839,5	111,7
Toyloq	997,5	114,4	4,4	4 680,9	111,6

Ushbu ko'rsatkich hududlar o'rtasida Samarqand shahrida 17 115,9 ming so'mdan Urgut tumanida 2 839,5 ming so'mgacha oraliqni tashkil etadi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Samarqand shahrida 17 115,9 ming so'mga teng bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 114,5 % ni tashkil etdi.

Bundan tashqari, aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmining sezilarli o'sishi Kattaqo'rg'on shahrida (112,6 %) hamda Samarqand (112,3 %) tumanida kuzatildi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi Urgut (2 839,5 ming so'm), Nurobod (2 878,9 ming so'm) tumanlarida kuzatildi.

Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish, uning tarkibini, yetarlicha rivojlangan jamiyat va rivojlangan ehtiyojlar bilan takomillashtirish mumkin va bu umuman hayot sifati kabi hodisa bilan bog'liq, chunki turli ehtiyojlarni qondirish jarayoni hayot sifatining muayyan standartini yaratadi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasi milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Xizmatlar bozorida keskin raqobatning kuchayishi raqobatbardosh servis korxonalarida zamonaviy xizmatlar strategiyasini ishlab chiqish, ularni ichki va xalqaro bozorlardagi o'rnini topish hamda keng targ'ib qilish asosida respublikamiz yalpi ichki



mahsulotidagi ulushini oshirish imkoniyatini yaratish mumkin. Shu o'rinda maishiy xizmat ko'rsatish sohasining o'rni alohida ahamiyatga ega.

Hududlarda aholiga taqdim qilinayotgan maishiy xizmatlar qo'yidagi guruhlarga bo'linadi:

- oyoq kiyimlarni ta'mirlash va tayyorlash;
- to'quv, mo'yna va charm mahsulotlari, bosh kiyimi va to'qimachilik mahsulotlarini ta'mirlash va tayyorlash, trikotaj mahsulotlarini ta'mirlash va tayyorlash;
- turar joylarni (xonadonlarni) aholining buyurtmasi bo'yicha ta'mirlash va qurish;
- maishiy texnika va uskunalarni, zargarlik mahsulotlarini ta'mirlash va tayyorlash, soatlarni ta'mirlash, kompyuterlar, radioelektron apparatura, televizorlar, musiqa tovarlarini ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish;
- aholining transport vositalarini (engil avtomashinalar, mototsikllar va boshqalar) ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish;
- mebellarni tayyorlash va ta'mirlash;
- kimiyoviy tozalash va bo'yash;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlari va xom-ashyosini qayta ishlash xizmatlari;
- fotoatele va fotolaboratoriya xizmatlari hamda ovoz yozish xizmatlari;
- sartaroshxona xizmatlari.

Hozirgi vaqtda maishiy xizmatlar ko'rsatish faoliyati mamlakatimizda aholiga maishiy xizmatlarni ko'rsatish qoidalari asosida tartibga solinadi. Maishiy xizmat ko'rsatish iqtisodiyot majmuasining tarkibiy qismi hisoblanadi va takror ishlab chiqarish tizimida ishtirok etadi hamda umumiy iqtisodiy qonuniyatlar asosida faoliyat tashkil qilinadi.

### **Xulosa va takliflar.**

Davlat tasarrufidagi xizmat ko'rsatish korxonalarini xususiylashtirish, investorlar ixtiyoriga berish hamda davlat xususiy sherikchilik dasturlari doirasida faoliyat ko'rsatishini ta'minlash lozim. Shunda xizmat ko'rsatish korxonalarini tamonidan ishlab chiqarish texnologiyalari modernizatsiya, diversifikatsiya qilinib aholiga sifatli va arzon xizmatlarni taklif etishlari mumkin. Buning natijasida davlat byudjetiga keladigan tushimlar miqdori ham o'sishi va xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlar ham mafatdor bo'lishlari aniq.

Korxonalarda xizmat ko'rsatish jarayonida band bo'lganlarning rahbar va mutaxassis xodimlarga nisbatan o'sib borishi ijobiy tendensiya hisoblanadi. Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish korxonalarida ish haq to'lashda uning haqiqiy mehnat natijalaridan kelib chiqib amalga oshirilishi xizmat ko'rsatish samaradorligini oshishiga imkoniyat yaratadi.

Xizmat ko'rsatish korxonalarini raqobatbarboshligini oshirishda sohada band bo'lgan mehnat resurslaridan samarali foydalanish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirishda ilmiy jihatdan yondashilsa maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xizmat ko'rsatish korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish ularda faoliyat yuritayotgan ishchi-xodimlarni moddiy rag'batlantirish tizimini doimiy takomillashtirishni nazarda tutadi. Ushbu sohada aniq takliflarni ishlab chiqish uchun mehnat bozorining mazkur sohasi segmentidagi o'ziga xos jihatlarni va uni tartibga solishning xususiyatlarini yoritib berish zarur.

### **Adabiyotlar/Jumepamyra/Reference:**

Farmon (2022) *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida gi PF-60-sonli Farmoni.*

Pardaev M.Q. (2009) *Xizmatlarning ijtimoiy-iqtisodiy tabiati va uni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari. // Servis., Ilmiy-ommabopjurnal., №1, B.38-46.*

Агапова Т.А., Серегина С.Ф. (2007) макроэкономика: Учебник/ Под общей ред, д.э.н., проф, А.В. Сидоровича; МГУ им. М.В. Ломоносова-4-е изд., перераб и доп.-М.: Дело и Сервис, 214 с.

Биндиченко Е.В. (2000) Сфера услуг: теория и практика / Изд-е Башкире, ун-та. – Уфа, – С. 83.

Гаранин А.И. (1980) Социально-экономические проблемы бытового обслуживания населения. Автореферат дис. ... д-ра экон. наук. - М.

Дмитрев В.М. (1996) Основ изучения и прогнозирование спроса на бытовые услуги. М.: Экономика, - с.32.

Котлер Ф. (2005) Маркетинг-менеджмент// Экспрес-курс. 2-е изд/перевод с англ. Под ред. Божун С.Г. Спб.: Питер. С-301.

Фатхутдинов Р.А. (2000) Стратегический менеджмент.: Учебник.: - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 272с.

Юхименко В.В. (1974) Социально-экономические вопросы прогнозирования бытового обслуживания населения. Автореферат дис. ... канд. экон. наук. – М.

Ядгаров Я.С. (1990) Бытовая обслуживания. Экономика и культура сервиса. М.: Экономика, с.19.